



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

GEOGRAFIYA O'QITISHNING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI MAQSADLARI

N. Sh. Shadiyeva

Buxoro davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrasи dotsenti

Z. Rajabova

Geografiya ta'lif yo'nalish talabasi

Annotatsiya:

Maqolada geografiya fanini o'qitish jarayonida ta'limiylar, tarbiyaviylar va rivojlantiruvchilar qanday amalga oshirilishi haqida so'z boradi. Geografiya nafaqat o'quvchilarga tabiiy va ijtimoiy muhitni o'rgatadi, balki ularda ekologik madaniyatni shakllantiradi, tabiatga bo'lgan hurmat va ma'naviy qadrlarni tarbiyalaydi. Shuningdek, mavzular orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, qiziqishlari va kuzatuvchanligi rivojlanadi. Mazkur maqola, geografiya darslarida o'qitish usullarini samarali qo'llash orqali talabalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini ham yoritadi.

Kalit so'zlar: geografiya o'qitish, ta'limiylar, tarbiyaviylar, rivojlantiruvchilar, ekologik madaniyat, tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, ijodkorlik, mustaqil fikrlash.

Аннотация:

В данной статье говорится о том, как реализуются образовательные, воспитательные и развивающие цели в процессе обучения географии. География не только знакомит учащихся с природной и социальной средой, но и формирует экологическую культуру, уважение к природе и моральные ценности. Кроме того, благодаря темам развиваются мыслительные способности, интересы и наблюдательность учащихся. Данная статья также проливает свет на возможности развития творческих способностей и самостоятельного мышления учащихся посредством эффективного использования методов обучения на уроках географии.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ключевые слова: преподавание географии, образовательные цели, образовательные цели, развивающие цели, экологическая культура, природная среда, социальная среда, творчество, самостоятельное мышление.

Kirish

Geografiya ta'limi metodikasi umumi didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumi qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tatqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtida har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishni shakillantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi.

Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a)	Geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tatqiqot usullari, rivojlanish tarixi
b)	Geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umuman va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash
v)	Ta'lim va tarbiyaning birligi

Nazariy tatqiqotlarning natijalari amaliy tatqiqotlar uchun asos bo'lib hisoblanadi. Mazkur tatqiqotlarda geografiya ta'limining amaliy muammolari hal qilinadi. Geografiya o'qitish metodikasining amaliy jixatlari o'qituvchini o'qitish faoliyatini, o'quvchini o'qish faoliyatini aks ettiradigan metodlarni ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismidan iborat. Umumiy va xususiy geografiya o'qitish metodikasi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi, bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatini o'rGANADI. Geografiya o'qitishning umumi metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, ya'ni predmetni o'zini tatqiqot usullarini o'rGANADI, bunda asosiy e'tiborni o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qaratiladi. Aniqlangan o‘quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta’limini mazmuni ishlab chiqiladi.

Umumiy metodika ikki qismga bo‘linadi

1	tabiiy geografiyani o‘qitish metodikasi
2	iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘qitish metodikasi

Xususiy geografiya o‘qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo‘yicha o‘quv tarbiyaviy jarayonlarni o‘ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Xususiy o‘qitish metodikasi alohida geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursini mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarni shakllantirish, o‘quv ishlari usullarini, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi.

Geografiya o‘qitish metodikasining umumiy vazifalari

Maktab geografiyasining ta’limiy	Tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish	Maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish
Maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish	Geografik ekskursiyalar, tatqiqotlar o’tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish	O‘qitish materiallarini qo’llashni optimal sharoitlarini asoslash; - o‘qitish vositalarini ishlab chiqish
Geografiya darslarini tuzilishi, o‘lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish		Geografiya o‘qitishni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo’llash

Geografiya o‘qitish metodikasi o‘qituvchilarni, o‘quvchilarni o‘qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi. Geografiya fanini maqsad va vazifalari turli davrlarda o‘zgarib va qaytadan shakllanib turgan. O‘qitishni maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va o‘qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish bilan maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o'qitish metodlarini turlari bog'liq. Oxirgi davrlarda, asosan XX-asr davomida o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammofiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davrda ham geografiya ta'limining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda. Geografiya o'qituvchisi har bir sinf geografiya kursini maqsadlarini bilishi lozim. Geografiya ta'limining maqsadlarini uch guruhga bo'lish mumkin: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Ta'limiy maqsadlar quyidagilardan iborat: o'quvchiga tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda amaliy geografiya asoslari bo'yicha mustahkam bilimlar berish.

Umumi orta ta'lim maktablarida o'quvchilarga tabiat va jamiyat haqida bilim beriladi; bilim ob'yektiv dunyoning rivojlanish qonuniyatlarini tushunib olishga imkon beradi. Olingan bilimlar asosida o'quvchilarda dialektik – materialistik dunyoqarash shakillanadi, tafakkur va bilish qobiliyatları rivojlanadi. Bu ta'lim vazifalarining katta ulishi maktab geografiyasi zimmasiga tushadi.

Maktab geografiyasi o'quvchilarni tabiatning asosiy komponenti (tarkibiy qism)lari va tabiat komplekslari bilan tanishtiradi. Maktabdagi geografiya kurslari o'quvchilarga sayyoramizning yer yuzasi va uning shakillanish tarixi, iqlimi, suvi va yer shari tabiat zonalari hamda tabiat resurslari haqida bilim beradi.

O'quvchilar maktab geografiyasini o'rganar ekanlar, o'zlari hali bilib ulgurmagan hodisalar bilan tanishadilar va ularning mohiyatini tushunib yetadilar. Fanni o'rganish o'quvchilarni hayotni anglab olishlariga imkon beradi, tabiat qonuniyatlarini bilib olishga havas uyg'otadi. Maktab geografiyasining ta'limiy vazifasi – umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lgan geografiya fani asoslarini o'quvchilar puxta egallab olishlarini ta'minlashdan, o'quvchilarni hayotda zarur bo'lgan va bevosita tadbiq eta oladiigan zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Geografiya fani o'quvchilarga quyidagilarni singdirishni taqozo etadi. Birinchidan, o'rganiladigan geografik ob'yekt puxta o'zlashtirilishi kerak, buning uchun o'quvchilar "Qayerda?", "Nima?", "Asli o'zi qanday?", "Kartada qanday berilgan?", degan savollarga aniq javob bera olsinlar. Binobarin, maktabda o'rganiladigan barcha geografiya kurslarida karta bilan muntazam ravishda mashq qilib borish kerak bo'ladi. Ikkinchidan, jadvalda ko'rsatilgan geografik ob'yektlarni mumkin qadar bevosita kuzatish, kuzatish imkoniyati bo'lмаган taqdirda uning joylanish xususiyatini kartadan aniqlash lozim. Joyda kuzatish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega. Kuzatish aniq tasavvur, ongli



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tushunchalarni shakillantirishga imkon beradi. Kuzatish imkoni bo'limgan geografik ob'yeqtalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun kartani qunt bilan o'rganish, uni maktab yaqinidagi o'xhash ob'yeqtalar bilan taqqoslash, turli rasmlar bilan ishslash lozim bo'ladi.Uchinchidan, o'quvchilarni geografik hodisalarnikuzatish bilan ular qaysi sabablarga ko'ra bir – biriga bog'liqligi va bir – biridan taqozo etishini aniqlab, "Qanday qilib?", "Nima uchun shu yerda joylashgan?" degan savolga javob bera olishga o'rgatish kerak.

Maktab geografiya ta'limining eng asosiy va muhim joyi o'quvchilar geografik ob'yeqtalar o'rtaqidagi aloqa va bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlab olishlaridadir. Geografiyani o'rganish geografik qonuniyatlarini ochib berish bilan qo'shib olib borilishi lozim. Geografik qobiqni va yer sharidagi ayrim maydonlarning geografik sharoitini o'rganish bilan o'uchilar gidrosfera, atmosfera va litosferaning bir – biriga aloqador ekanligi va bir – biriga ta'sir ko'rsatishini bilib oladilar. Shuningdek, o'quvchilar geografik qobiqning muttasil harakatda, o'zgarishda ekanligini ham tushunib oladilar.

Geografiya ta'limida o'lka ma'lumotlaridan unumli va oqilona foydalanilsa, ular birinchidan, o'quvchilarga o'z o'lkasida yuz beradigan hodisalar va aholi xojalik faoliyatini, shu bilan birga, yer sharining boshqa joylarda sodir bo'ladigan hodisalar va aholi hayotini aniq tasavvur qilishga imkon beradi; ikkinchidan, o'lkani o'rganish jarayonida o'quvchilar geografiya kursida olgan bilimlarini turmushga tadbiq qilishni bilib oladilar; uchinchidan, o'lkaza doir ma'lumotlar politexnika ta'limini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'quvchilar o'z o'lkasini o'rganishlari natijasida foydali mehnatga faol qatnashadilar: maktab atrofining topografik planini chizish. Bu maktabga va o'quv ishiga katta foyda keltiradi;

1. Maktab atrofidagi tog' jinslari va minerallarni, yer osti va oqar suvlarni, tuproq va o'simlik dunyosini o'rganish. Bu bilan ulardan xalq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash mumkin;
2. Muntazam ravishda ob – havoni kuzatish, Bu bilan mahalliy joylarda turli xo'jalik tadbirlarini to'g'ri amalga oshirish ishiga yordam berishi mumkin;
3. Fenologik kuzatish olib boorish. Bu bilan qishloq xo'jalikekinlarini yig'ib – terib olish uchun tegishli muddatlar belgilashda ularga yordamlashish mumkin. Demak, o'quvchilarning maktabda olgan geografik bilimlari kelajakdagi faoliyatları uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini shakillantirish. O'quvchilar geografiyani o'rganar ekanlar, tabiatning va jamiyatning o'zgarishi va rivojlanish qonuniyatlarini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tushunib boradilar, tabiat qonuniyatlaridan jamiyat manfaatlari uchun foydalanish yo'llari bilan tanishadilar.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi tabiatda yuz beradigan ko'pgina hodisa va jarayonlar (yerning ichki kuchlari, vulqon otilishlari, zilzila, tog'larning paydo bo'lishi, atmosferadagi ro'y beradigan hodisalar – dovul, sel)ning vujudga kelishi haqida ilmiy tushunchalar beradi. Tabiiy hodisalar o'rtasidagi sabab – aloqalar aniqlanadi. Geografik muhitni tashkil etuvchi elementlar o'zaro bir – biriga bog'langan (masalan, iqlimning, joyining geografik o'rni, yer yuzasi, dengizga yaqin – uzoqligi, dengiz oqimlari, doimiy shamollarga bog'liqligi) va bir – birini taqozo etish holatlari o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimqulov N.R., Abdullaev I.H., Holmurodov SH.A. Amaliy geografiya. – T.: 2015.
2. Шадыева Н.Ш. Научно-методическое значение развития творческих способностей молодых учителей географии при использовании программных средств обучения // Электронный журнал «Наука и образование». № 5 стр.
3. Shadiyeva N. Geografiya o'qitish metodikasiga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tahlili. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), (2022). 26(26).